

BALOG'AT ILMIDA QASR USLUBI VA UNING TURLARI

THE CASTLE STYLE AND ITS TYPES IN EDUCATION

ЗАМКОВЫЙ СТИЛЬ И ЕГО ТИПЫ В ОБРАЗОВАНИИ

Umarova Azizaxon Muso qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

azizaumarova2901@gmail.com

Ilmiy rahbar: Umurzakova Aygul Umarovna

O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tili balog'at ilmidagi qasr uslubi haqida yozilgan bo'lib, unda qasr uslubining arab tili balog'atidagi o'rni, qasr qilish uslublari va turlari, qasr qilish vositalari hamda so'zlovchi va tinglovchining holatiga ko'ra qasr uslubining turlarga bo'linishi arab tilidagi zamonaviy va qadimgi manbalardan misollar keltirish orqali tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: qasr, maqsur, maqsur alayhi, nafiyy, isbot, haqiqat, voqe'lik, so'zlovchi, tinglovchi.

Annotation. This article is about the style of qasr in Arabic juvenile science, explaining the role of qasr style in Arabic puberty, styles and types of qasr, the means of qasr, and the division of qasr style into types according to the situation of the speaker and listener by giving examples from original modern and ancient Arabic sources.

Keywords: qasr, maqsur, maqsur alayhi, nafiyy, proof, truth, reality, speaker, listener.

Аннотация. Эта статья посвящена стилю касра в арабской юношеской науке, объясняя роль стиля касра в арабском половом созревании, стили и типы касра, средства касра, а также разделение стиля касра на типы в зависимости от положения говорящего и слушателя, приводя примеры из оригинальных современных и древних арабских источников.

Ключевые слова: каср, максур, максур алайхи, отрицание, доказательство, истина, реальность, оратор, слушатель.

Arab tili balog'ati inson nutqining nozik ma'no ifodalarini aniqlik va ta'sirchanlik bilan yetkazishga xizmat qiluvchi eng yuksak ilmiy-adabiy tizimlardan biridir. Ushbu ilmning eng muhim bo'limlaridan biri — qasr uslubi bo'lib, u ma'noni cheklash, ixtisoslash va ta'kid orqali xitob kuchini oshirishga xizmat qiladi. Qadim arab notiqolari, mufasssirlar va adiblar qo'llagan bu uslub nafaqat ma'noni aniq chegaralab beradi, balki tinglovchi yoki o'quvchining e'tiborini muhim nuqtaga qaratadi.

Qasrning mazkur xususiyati uni Qur'on oyatlarida, hadis matnlarida, mumtoz arab she'riyatida va zamonaviy adabiy uslublarda keng qo'llaniladigan balog'iy vosita darajasiga ko'targan. Ayniqsa, ma'noni boshqalardan istisno qilish yoki ma'lum bir shaxs yoki sifatni alohida ta'kidlash ehtiyoji tug'ilganda qasrning balog'iy qiymati

yanada ravshan namoyon bo'ladi. Shu bois, qasr uslubini o'rganish arab tili balog'atini mukammal tushunish, matnlarning chuqur semantik qatlamlarini anglash va nutqni yanada ta'sirchan qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada qasrning mazmun-mohiyati, kelish usullari va adabiyotdagi namunalari tahlil qilinadi.

Qasr – lug'atda الحبس *saqlash* degan ma'noni bildiradi¹⁶. Istilohda qasr uslubi – bir narsani maxsus uslub orqali bir narsaga xoslash, cheklashdir. Qasr qilinayotgan narsa - **maqsur** المقصور, unga xoslanayotgan, cheklanayotgan narsa **maqsur 'alayhi** المقصور عليه deyiladi.

Masalan: ما زيد إلا طالب – Zayd faqat talaba.

Zayd qasr qilinayotgan so'z - maqsur, talaba esa unga qasr qilinayotgan so'z - maqsur 'alayhdir.

Bu xoslik, cheklanish ma'lum bir uslublar va vositalar orqali amalga oshiriladi. Mashhurlari to'rtta¹⁷:

- Nafiy va istisno orqali, bunda maqsur 'alayhi istisnoni bildirgan so'zdan keyin bo'ladi.

- إنما orqali, bunda maqsur 'alayhi إنما dan keyin kelishi majburiy bo'ladi.

- لكن, بل, لا so'zlariga bog'lanib keladi, agar bog'lanish لا bilan bo'lsa qasr qilingan so'z لا dan keyin kelgan so'zga qarama-qarshi ma'noda bo'ladi, agar بل yoki لكن bilan bo'lsa qasr qilingan so'z shu vositalardan keyin kelgan so'z bo'ladi.

- Aslida keyin kelishi kerak bo'lgan ismni avval keltirish, bunda qasr qilingan so'z birinchi keltirilgani bo'ladi.

Ushbu uslublarga misollar¹⁸:

1. ما شوقي إلا شاعرا. – Shavqiy faqat shoir xolos.

2. إنما يشتري المحامد حر طاب نفسا لهن بالأمثال.

Albatta, maqtovlarni faqat erkin kishi sotib oladi,

Ularning narxini yaxshi nafs bilan to'laydi.

3. الأرض متحركة لا ثابتة. – Yer harakatlanadi, sobit emas.

4. إياك ننق. – Faqat senga ishonamiz.

Qasrning haqiqat va voqe'lik yoki so'zlovchining holatiga ko'ra bo'linishi ¹⁹:

- القصر الحقيقي – haqiqiy qasr – ma'noni haqiqat va voqe'likka ko'ra boshqa barcha ehtimollardan cheklash:

Masalan, لا خالق إلا الله

Allohdan o'zga yaratuvchi yo'qdir.

Yaratuvchilik sifatini faqat Alloh bilan cheklash va undan boshqa narsalardan bu sifatni inkor qilish. Bundan shuni tushunamizki, inkor qilish umumiy, faqatgina shu maqsur 'alayhi bo'lgan ismdan tashqari.

- القصر الإضافي – izofiy qasr – bu turda ma'no mutlaq cheklanmaydi, balki ma'lum bir doira ichida boshqa variantlardan ajratib ko'rsatadi:

Masalan, لا شاعر إلا شوقي

Shavqiydan boshqa shoir yo'q.

¹⁶ جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع

¹⁷ البلاغة الواضحة في البيان والمعاني والبدیع مع الدليل

¹⁸ جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع

¹⁹ كيف تتقن البلاغة

She'riyatni Ahmad Shavqiyga xos qilish ya'ni she'riyatni Shavqiy bilan cheklash, masalan Hofiz Ibrohim bilan emas, holbuki she'riyat boshqa shoirlarga ham tegishli. Bu misoldan mulohaza qilamizki, inkor qilish Hofiz Ibrohimga xos, undan esa Ahmad Shavqiy istisno qilingan.

Haqiqiy qasr ham o'z navbatida ikki qismga bo'linadi: **haqiqiy tahqiqiy va haqiqiy iddioiy**.

Haqiqiy tahqiqiy – unda nafiyy umumiy, barcha narsalarga nisbatan bo'ladi, faqat haqiqiy yoki voqe'likdagi maqsur' alayh istisno qilinadi.

Masalan, لا يروي أرض مصر من الأنهار إلا نهر النيل

Misr yerini faqatgina Nil daryosi sug'oradi.

Misr yerini sug'orishning Nilga xosligi va boshqa barcha daryolardan buni inkor qilish holati haqiqiy tahqiqiy qasrdir. Buni haqiqat ham voqe'lik ham isbotlaydi. Chunki Misrni rostdan ham Nil daryosi sug'oradi.

Haqiqiy iddioiy – unda ham nafiyy umumiy, barcha narsalarga nisbatan bo'ladi, faqat iddao va mubolag'a uchun bo'lgan maqsur' alayhi istisno qilinadi.

لا عالم في البلد إلا زيدا

Shaharda Zayddan boshqa olim yo'q.

Zaydning ilmining mavjudligi va undan boshqalardan buni inkor qilish haqiqiy qasr, lekin haqiqat va voqe'lik buni isbotlamaydi chunki boshqa olimlar ham mavjud. Zayddan boshqalardan olimlikni inkor qilish faqat iddao va mubolag'a uchundir.

Tinglovchining xabardorligiga ko'ra qasr uchta: qosrul ifrod, qosrul qolb, qasrut ta'yiynga bo'linadi.

- قصر أفراد – tinglovchi hukmda maqsur' alayhiga boshqa biror narsa sherik bo'ladi deb o'ylasa,

الناجح علي لا زيد

Zayd emas Ali muvaffaqiyatli.

Muvaffaqiyatda Ali va Zaydni birgaligi tushnilganda javob o'laroq aytiladi.

- قصر قلب – tinglovchi hukmning aksini tushunganda, uning tushunchasi o'zgartiriladi

ما الكريم إلا من يعطي وهو محتاج

Saxiy – o'zi muhtoj bo'lsa ham beradigan kishi.

Saxiy faqat boy bo'ladi deb o'ylanganda javoban aytiladi.

- قصر تعيين – tinglovchi hukmda ikki narsa orasida ikkilanyotgan bo'lsa,

إنما شاعر النيل حافظ

Albatta Hofiz Nilning shoiridir.

Hofiz Ibrohimmi yoki Ahmad Shavqiymi deb ikkilanayotganda javoban aytiladi²⁰.

Haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan (izofiy) qasr yana maqsurning holatiga ko'ra ham ikki turga bo'linadi:

1. Mavsufning sifatga qasr qilinishi

2. Sifatning mavsufga qasr qilinishi²¹.

Mavsufning sifatga qasr qilinishi – bu uslub avval mavsufni keltirish orqali yasaladi:

²⁰ كيف تتقن البلاغة

²¹ تلخيص المفتاح

ما زيد إلا كاتب\ إنما زيد كاتب\ إنما زيد كاتب لا شاعر²²

Zayd faqat yozuvchi xolos/ Albatta Zayd yozuvchidir/ Zayd yozuvchi, shoir emas.

Sifatning mavsufga qasr qilinishi – sifat mavsufdan oldin keltirilishi bilan bo'ladi:

ما كاتب إلا زيد\ إنما الكاتب زيد\ زيد كاتب لا عمرو

Zayddan boshqa yozuvchi yo'q/ yozuvchi faqat Zayddir/ Yozuvchi Zayd, Amr emas. Xulosa o'rnida shuni aytamizki, balog'at ilmida qasr – ma'noni kuchli ta'kid va aniqlik bilan ifodalashga xizmat qiladigan eng ta'sirli uslublardan biridir. Matnning ta'sirchanligini oshirish, noto'g'ri tasavvurlarni rad etish, ma'lumotni aniq nuqtaga jamlash va muallifning maqsadini to'g'ri yetkazishda ritorik qurol sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois bu uslub arab adabiyotida o'zining muhim o'rniga ega bo'lib, badiiy va ilmiy matnlarning ma'nodagi nozikligi va kuchliligini ta'minlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

١. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. هندawi سي أي سي – المملكة المتحدة - ٢٠١٧
٢. علي الجارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة في البيان والمعاني والبدیع مع الدليل. الرسالة للنشرون - بيروت - ١٩٢٠
٣. أحمد إسكندر. كيف تتقن البلاغة. دار الؤلؤة - القاهرة - ٢٠٢٤
٤. شيخ محمد بن عبد الرحمن القزويني. تلخيص المفتاح. مكتبة البشرى - كراتشي - ٢٠١٠
٥. هارون عبد الرازق. حسن الصياغة في فنون البلاغة. مكتبة أهل الأثر - الكويت - ١٩١٨

حسن الصياغة في فنون البلاغة²²